Kreditning to‘liq qiymati (KTQ):
25% (Yiggirma besh foiz)

AVANS PLYUS MIKROQARZI AJRATISH BUYICHA OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

“Agrobank” Aksiyadorlik Tijorat Banki (keyingi o‘rinlarda — Bank), O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2021-yil 25-dekabda berilgan 78-sonli litsenziyaga asosan faoliyat yuritadi va O‘zbekiston Respublikasining rezident jismoniy shaxslariga (keyingi o‘rinlarda — Qarz oluvchi) Avans plyus mikroqarz taqdim etish bo‘yicha ushbu Shartnomani (keyingi o‘rinlarda — Shartnoma) taklif etadi. Ushbu hujjat O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-moddasi va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq rasmiy ommaviy oferta hisoblanadi hamda Shartnoma tuzish bo‘yicha Bankning taklifini ifodalaydi.

I. ASOSIY TUSHUNCHALAR

1.1. Ushbu shartnomada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

Avans plyus mikroqarz (keyingi o‘rinlarda mikroqarz) – O‘zbekiston Respublikasining “Mikromoliyalash to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan muddatlilik, to‘lovlilik, qaytarishlilik va ta’minlanganlik shartlari asosida, milliy valyutada, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga bankning mobil ilovasi orqali, ushbu shartnomada belgilangan shartlar asosida kredit ajratilishi tushuniladi;

Bank kartasi – Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslar uchun emissiya qilingan plastik karta;

Qarz oluvchi – Bank mobil ilovasida o‘ziga tegishli bo‘lgan ish haqi doirasida ochilgan bank kartalarini biriktirgan va bankning mobil ilovasi orqali mikroqarz xizmatidan foydalanishga ariza bergan jismoniy shaxs;

Mobil ilova – jismoniy shaxslarga mobil ilovadan bank xizmatlari, shu jumladan onlayn mikroqarz turlaridan foydalanish imkoniyatini beruvchi maxsus dasturiy ta’minot;

Oferta – Mobil ilova orqali Bank Qarz oluvchilariga e’lon qilingan, yetarli darajada aniq bo‘lgan va taklifni kiritgan Bank va uni qabul qiladigan shaxs bilan shartnoma tuzgan deb hisoblash niyatini ifoda etadigan taklif;

Aktsept – Qarz oluvchining mikroqarz bo‘yicha Bank ofertasini qabul qilinganligi to‘g‘risidagi javobi;

Kredit arizasi – Qarz oluvchiga avans plyus mikroqarz taqdim qilish ehtimolini baholash maqsadida Masofadan turib mobil ilova orqali Qarz oluvchi tomonidan Bankka yuboriladigan va mazkur shartnomada nazarda tutilgan shartlarda so‘ralayotgan mikroqarz to‘g‘risida umumiy axborotni o‘z ichiga olgan hujjat;

Avans plyus mikroqarz ta’minoti – sug‘urta kompaniyasi tomonidan taqdim qilinayotgan kredit qaytmaslik xatariga sug‘urta polisi kreditning shartnoma miqdorining 120% foizidan kam bo‘lmagan miqdorida.

Sug‘urta polisi – Sug‘urta shartnomasi tuzganligini, Sug‘urta shartnomaning shartlariga ko‘ra sug‘urta korxonasining sug‘urta tovonini to‘lash bo‘yicha majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat.

II. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Budjet tashkilotlari ish haqi loyihasi doirasidagi Qarz oluvchilar uchun “Avans Plyus” onlayn mikroqarzi kredit arizasida Qarz oluvchi tomonidan buyurtma qilingan summada, biroq Bank tomonidan Qarz oluvchi uchun tasdiqlangan miqdordan oshmagan holda taqdim etiladi.

2.1.1. Kreditning to‘liq qiymati (KTQ) qonunchilikda belgilangan tartibda kredit bo‘yicha to‘lovlar va KTQ hisob-kitobiga kiritilishi lozim bo‘lgan boshqa xarajatlarni inobatga olgan holda hisoblanadi va shartnomaning birinchi sahifasida ko‘rsatiladi. Kredit qaytmasligi xavfini sug‘urtalash uchun KTQ hisob-kitobiga kiritilishi lozim bo‘lgan sug‘urta mukofoti mavjud bo‘lsa, u ham hisobga olinadi.

2.2. Ushbu shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi.

Qarz oluvchi mobil ilovada “Avans plyus” onlayn mikroqarz bo‘yicha ushbu Shartnoma (ommaviy oferta) shartlari bilan tanishib, “Qabul qilaman/Tasdiqlayman” tugmasini bosgan va Face ID (biometrik identifikatsiya) hamda push-bildirishnoma orqali yuborilgan bir martalik tasdiqlash kodi (OTP) bilan tasdiqlagan paytdan boshlab, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq ushbu Shartnoma akseptlangan hisoblanadi. Shundan so‘ng Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo‘yicha qarz oluvchi va to‘lovlarni amalga oshiruvchi shaxs sifatida ishtirok etadi.

III. AVANS PLYUS MIKROQARZ AJRATISH TARTIBI VA SHARTLARI

3.1. Qarz oluvchi “Avans plyus” onlayn mikroqarz shartlari bilan tanishib chiqib, Mobil ilovada mavjud Bank kartasini tanlagan (yoki yangi virtual karta ochish) holda “Avans plyus” onlayn mikroqarz olish uchun mobil ilova orqali “Avans plyus” onlayn mikroqarzga buyurtma qoldiradi. Mazkur buyurtma orqali Qarz oluvchi Bankka “Avans plyus” onlayn mikroqarz ko‘rib chiqish, berish va so‘ndirish jarayonlari bilan bog‘liq maqsadlarda O‘zbekiston Respublikasi “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun talablariga asosan rasmiy manbalardan zarur bo‘ladigan ma’lumotlarni olishga va kerakli hajmda Qarz oluvchining shaxsiy ma’lumotlarini talab qilish, olish, qayta ishlash va uzatish uchun roziligini bildiradi.

3.2. “Avans plyus” onlayn mikroqarz arizasi ko‘rib chiqilganidan keyin Bank Qarz oluvchiga mobil ilovada Bank tomonidan tasdiqlangan ajratilishi mumkin bo‘lgan “Avans plyus” onlayn mikroqarz miqdori ma’lum qilinadi yoki kreditni to‘lash qobiliyati yetarli emasligi sababli “Avans plyus” onlayn mikroqarz taqdim etish imkoniyati yo‘qligi to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim qiladi.

3.3. Mazkur oferta shartnoma kuchga kirganidan so‘ng Bank avtomatlashgan ravishda Qarz oluvchiga “Avans plyus” onlayn mikroqarzdan foydalanish imkonini beruvchi ssuda hisobvarag‘ini ochadi va quyidagi miqdorgacha hamda shartlarda dasturiy ravishda ajratiladi. Bank kredit ajratish uchun zarur shartlar bajarilgandan so‘ng kredit mablag‘larini __ (____) ish kuni ichida Qarz oluvchining bank kartasiga o‘tkazadi.

3.4. Bir Qarz oluvchi uchun “Avans plyus” onlayn mikroqarzning maksimal miqdori – 100 000 000 (bir yuz million) so‘mgacha.

3.2. Kredit muddati: Kredit 2 (ikki) yil muddatga, 12 oyda teng ulushlarda to‘liq so‘ndirish va kreditning dastlabki birinchi yarmida qayta ajratish sharti bilan (revolver) ajratiladi.

Bank kredit mablag‘larini kreditlashning ***qaytarishlik, to‘lovlilik, ta’minlanganlik, muddatlilik*** tamoyillariga rioya qilgan holda ajratadi. Kredit ajratilgan sanadan boshlab dastlabki **12 (o‘n ikki) oy** davomida Qarz oluvchi tomonidan grafikka asosan qaytarilgan mablag‘ ajratilgan limitga qayta qo‘shiladi hamda keyingi **12 (o‘n ikki) oy** davomida proporsional tartibda limit kamaytirib boriladi.

3.3.Kreditdan foydalanganlik uchun foiz miqdori: 2 (ikki) yil muddatga, yillik 25 (Yigirma besh) foiz.

3.3.1. Foiz stavkasi turi — o‘zgarmas.

3.4. Berilgan “Avans plyus” onlayn mikroqarzga hisoblangan foizlar va shartnomadagi grafik bo‘yicha asosiy qismi kredit ajratilgan sanadan qat’iy nazar to‘lanishi lozim bo‘lgan oyning 5-sanasidan kechikmagan holda har oyda to‘lanadi.

3.5.“Avans plyus” onlayn mikroqarz ta’minoti – Mobil ilovada qayd etilgan sug‘urta kompaniyalarining kredit qaytmasligi xavfini sug‘urtalash polisi.

3.6.“Avans plyus” onlayn mikroqarz so‘ndirish tartibi – To‘lovlar mobil ilovada qayd etilgan to‘lov differensial jadvali asosida. Kreditning asosiy summasi va hisoblangan foizlar differensial usulda to‘lanadi.

3.6.1. Yangi kreditni qaytarish jadvali Bank va Qarz oluvchi tomonidan tasdiqlanib, Qarz oluvchiga taqdim etilgach, avvalgi jadval o‘z kuchini yo‘qotadi va yangi jadval amal qiladi.

3.7. Ajratish tartibi – Qarz oluvchining Bank kartasiga pul o‘tkazish yo‘li orqali ajratiladi.

3.8. Bank “Avans plyus” onlayn mikroqarzni qaytarish muddati kelgandan so‘ng, qarzdorlik mavjud bo‘lsa qarz oluvchining bank kartasi va masofadan boshqariladigan maxsus hisob raqamlari harakatini qarzdorlik so‘ndirilgunga qadar vaqtinchalik to‘xtatish orqali kelib tushayotgan barcha mablag‘larni qarzdorligini so‘ndirish uchun yo‘naltiradi.

3.9. Qarz oluvchi “Avans plyus” onlayn mikroqarz mablag‘laridan amaldagi qonunchilikka zid ravishda foydalanganligi aniqlangan taqdirda, Bank kredit summasi va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin undirish huquqiga ega. Bank kreditni ajratish (va/yoki undan foydalanish) jarayonida pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalar to‘g‘risidagi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga hamda ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq axborotni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va o‘rnatilgan tartibda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etadi.

3.10. Bank yuzaga kelgan barcha qarzdorliklarni Qarz oluvchining mavjud bo‘lgan barcha hisob raqamlaridagi mablag‘lar hisobidan memorial order bilan uning roziligisiz undiruvni amalga oshiradi.

3.11. Qarz oluvchi ushbu Shartnomani o‘z xohishiga ko‘ra ixtiyoriy ravishda aksept qilganligini, kredit olish to‘g‘risidagi ariza va tasdiqlarni shaxsan o‘zi berganligini, uchinchi shaxslar tomonidan aldov, bosim, majburlash yoki firibgarlik ta’siriga tushmaganligini, shuningdek kredit mablag‘laridan faqat shaxsiy ehtiyojlari uchun foydalanishini hamda kredit mablag‘lari uchinchi shaxslarning manfaatlari uchun yoki ularning ko‘rsatmasiga binoan, shuningdek noqonuniy maqsadlarda yo‘naltirilmasligini tasdiqlaydi.

3.12. Qarz oluvchi tomonidan noto‘g‘ri ma’lumot berilishi, uchinchi shaxs ta’siri ostida harakat qilinishi yoki kredit mablag‘laridan shartnomaga zid tarzda foydalanilishi natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar va zararlar uchun Bank javobgar bo‘lmaydi hamda Bank bunday holatlar aniqlanganda operatsiyalarni cheklash, to‘xtatish yoki kredit ajratishni rad etish huquqiga ega.

3.13. Qarz oluvchiga mikroqarz anketasi ochilgandan so‘ng, agar Qarz oluvchining ish haqi 30 (o‘ttiz) kun davomida tushmasa yoki Qarz oluvchi ishdan bo‘shagan kundan boshlab, mikroqarzning foydalanilmagan qismidan foydalanish imkoniyati cheklanadi.

IV.TARAQFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1.Qarz oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

-Qarz oluvchi kredit mablag‘lari haqiqatda berilguniga qadar Bankni xabardor qilish orqali kredit olishdan hech qanday to‘lovlarsiz voz kechish huquqiga ega;

Bankning “Byudjet tashkilotlari xodimlariga “Avans plyus” onlayn mikroqarzi ajratish Tartibi” talablari bilan tanishib chiqish;

-o‘z huquq va majburiyatlari to‘g‘risida, shu jumladan kredit berish bilan bog‘liq barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda to‘liq axborot olish;

-kredit shartnoma shartlarining shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda bajarilishini talab qilish;

-Qarz oluvchi kredit bo‘yicha qarzdorlikni istalgan vaqtda jarima (penya) undirilmasdan qisman yoki to‘liq muddatidan oldin so‘ndirish huquqiga ega; bunda foizlar kredit mablag‘laridan haqiqatda foydalanilgan muddat uchun hisoblanadi;

-kredit shartnomasi tuzilgan kundan e’tiboran bir oy ichida kreditidan foydalanmagan taqdirda, shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish.

-Bankdan shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararlarning o‘rnini qoplashni talab qilish.

-qarzdor moliyaviy qiyinchilik, murakkab hayotiy vaziyat yoki fors-major holatlari tufayli kredit to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirishga qiynalganda, kredit shartnomasi shartlarini o‘zgartirish (restrukturizatsiya) to‘g‘risida Bankka ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega bo‘lib, mazkur ariza Bankning ichki tartibiga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

-qarz oluvchi Bankka ariza, shikoyat yoki taklif bilan og‘zaki, yozma yoki elektron tarzda murojaat qilish huquqiga ega bo‘lib, Bank murojaat kelib tushgan kundan e’tiboran, qo‘shimcha o‘rganish talab etilmasa 15 kun ichida, qo‘shimcha o‘rganish/tekshirish talab etilsa 1 oygacha muddatda uni ko‘rib chiqadi va bunda qo‘shimcha muddat talab etilishi to‘g‘risida Qarz oluvchiga xabarnoma yuboradi.

4.2.Qarz oluvchi quyidagi majburiyatlarga ega:

Krediti olish va foydalanish uchun zarur hujjatlarni taqdim etishi;

-kreditidan amaldagi qonunchilikka muvofiq foydalanishi;

-olingan kreditni qaytarishni va mazkur kredit bo‘yicha hisoblangan foizlarni to‘lashni shartnomada belgilangan tartibda hamda muddatlarda amalga oshirishi;

-kredit bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik to‘g‘risida yozma yoki elektron SMS tarzda xabar olingan kundan boshlab 3 (uch) bank ish kunida qarzdorlikni Bankka to‘liq to‘lab berishi;

-kredit to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lamagan yoki to‘liq to‘lamagan taqdirda bank tomonidan ushbu to‘lovlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarz oluvchi va unga kafillik bergan shaxsning oylik ish haqisidan, bank kartasidan, omonatdagi yoki depozitdagi har qanday mablag‘lar hisobidan hamda boshqa banklardagi hisob raqamlaridan akseptsiz undirib olinishiga qarshilik ko‘rsatmaydi.

Qarz oluvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

4.3.Bank quyidagi huquqlarga ega:

-Kredit berishni rad etish;

-shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish va monitoring o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni qarz oluvchidan so‘rab olish;

-kredit bo‘yicha to‘lov 30 (o‘ttiz) ish kunidan ortiq amalga oshirilmaganda kredit va unga hisoblangan foizlarni sud tartibida, shu jumladan muddatidan oldin undirish.

-Qarz oluvchi tomonidan mazkur shartnoma shartlari bajarilishi va uning shartlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “Kredit axboroti tahliliy markazi” kredit byurosi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Kredit Axboroti Davlat Reyestriga yuborish.

-Qarz oluvchi kredit bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida yoki to‘liq amalga oshirmagan taqdirda, bankka qarzdorlikni akseptsiz undirish huquqini beradi va bunga qarshilik ko‘rsatmaydi. Undiruv qarz oluvchining ish haqi, bank kartalari, omonat mablag‘lari, shuningdek boshqa banklardagi hisobvaraqlari hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Bunda davlat tomonidan ajratiladigan ijtimoiy nafaqa va yordam mablag‘lari, jumladan ijtimoiy karta hisobvaraqlariga kelib tushadigan mablag‘lar hisobidan undiruvga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.4.Bank quyidagi majburiyatlarga ega:

Qarz oluvchining huquq va majburiyatlari to‘g‘risida, shu jumladan kredit berish bilan bog‘liq barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda to‘liq axborotni ma’lum qilishi;

-kreditni mazkur shartnomada belgilangan tartibda va muddatda berishi;

-kredit berish qoidalarini hamma tanishib chiqishi uchun qulay bo‘lgan joyga joylashtirishi;

-shartnoma bo‘yicha majburiyatlar bajarilmaganligi yoki tegishli darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararlarning o‘rnini qarz oluvchiga qoplashi shart.

Bank qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Bankning dasturiy ta’minotida yuzaga kelgan nosozliklar natijasida Qarz oluvchining majburiyatlari oshirilishiga yoki uning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bank bunday nosozliklar oqibatida yuzaga kelgan xatolarni bartaraf etadi hamda yetkazilgan zararni qonunchilikka muvofiq qoplaydi.

V.MAXSUS SHARTLAR

5.1. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, undiruvchilar va davlat ijrochilarining undiruvni qarzdorning pul mablag‘lari va (yoki) boshqa mol-mulkiga qaratish to‘g‘risidagi qarorlari (talablari, ijro hujjatlari) Bank tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda va muddatlarda ijro etiladi. Mikroqarz bo‘yicha kredit mablag‘lari Qarz oluvchining hisobvarag‘iga o‘tkazilgunga qadar (kredit ajratilmaguncha) ushbu kredit mablag‘lari undiruv obekti hisoblanmaydi. Kredit mablag‘lari Qarz oluvchining hisobvarag‘iga o‘tkazilgandan so‘ng ularga nisbatan undiruv qo‘llanilishi tegishli ijro hujjati asosida va qonunchilik talablari doirasida amalga oshiriladi.

5.2. Bank qarz oluvchi haqida va u tomondan kredit bo‘yicha amalga oshirilgan operatsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni sir saqlanishini kafolatlaydi va hech kimga oshkor etmaydi. Ma’lumotlar faqat amaldagi qonunchilikka muvofiq oshkor qilinishi va taqdim etilishi mumkin.

5.3. Qarz oluvchi vafot etganda kredit bo‘yicha qarzdorlik amaldagi qonunchilikka muvofiq sud tartibida kredit ta’minoti, uning mol-mulkiga va/yoki merosxo‘rlariga qaratilishi mumkin.

5.4. Qarz oluvchi mazkur qarzga oid ma’lumotlarni kredit tarixini o‘rganish bo‘yicha mutassaddi tashkilotlarga taqdim qilinishiga rozilik beradi.

5.5. Mazkur shartnomani ijro etish bo‘yicha, har qanday sud instansiyasida bank taqdim etgan hujjat, ushbu qarzdorlik summasi Bankka tegishliligi va to‘lanishi lozimligini tasdiqlovchi prima facie (birlamchi) dalil hisoblanadi.

VI.SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

6.1. Shartnoma qarz oluvchi tomonidan akseptlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

6.2. Ushbu Shartnoma kredit muddati davrida amal qilib, kredit yuzasidan barcha qarzdorliklar so‘ndirilganidan keyin bekor qilinadi.

VII.FORS-MAJOR HOLATLAR

7.1. Agar shartnomaning bajarilmaganligi, shartnoma tuzilgandan so‘ng yuzaga kelgan suv toshqini, yong‘in, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, oqibati hisoblansa, taraflar ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarining to‘liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgar bo‘lmaydi. Taraflarni majburiyatini bajarishdan ozod qilishi uchun bu fors-major holatlar majburiyatining bajarilmasligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘sqinlik qilgan bo‘lishi lozim.

VIII.KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

8.1. Mazkur oferta shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, har qanday noqonuniy ustunlik yoki boshqa imtiyozlarni olish maqsadida, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari ushbu shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta’sir qilish uchun, har qanday shaxslarga haq to‘lamaydilar, to‘lashni taklif qilmaydilar va hech qanday pul mablag‘lari yoki qimmatbaho buyumlarni to‘lashga yo‘l qo‘ymaydilar.

8.2. Ushbu oferta shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari, amaldagi qonunchilikka muvofiq pora berish va olish, tijoratda pora evaziga og‘dirib olish, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik

talablarini va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

8.3. Agar Tomonlardan biri ushbu bandning har qanday qoidalarining buzilishi sodir bo‘lgan yoki sodir bo‘lishi mumkin deb gumon qilsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Yozma bildirishnomada tomon boshqa tomon, uning xodimlari yoki vositachilari tomonidan ushbu bandning har qanday qoidalari buzilishi sodir bo‘lgan yoki sodir bo‘lishi mumkin bo‘lganligini ishonchli tasdiqlovchi yoki ishontirish uchun asos bo‘ladigan faktlarga havola qilishi yoki materiallarni taqdim qilishi kerak.

8.4. Agar Tomonlardan biri ushbu band qoidalarini buzsa, boshqa Tomon shartnomani bir tomonlama bekor qilish to‘g‘risida yozma bildirishnoma yuborish orqali shartnomani suddan tashqari bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli.

IX.XALQARO SANKSIYALAR VA KOMPLAYENS

9.1. Ushbu Ommaviy ofertani aksept qilish (qabul qilish) orqali Qarz oluvchi va Bank ushbu Shartnoma doirasida qo‘llaniladigan sanksiya va komplayens talablari, jumladan BMT Xavfsizlik Kengashi rezolyusiyalari, Yevropa Ittifoqi, OFAC hamda OFSI sanksiya rejimlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya etishini tasdiqlaydi.

9.2. Qarz oluvchi o‘zi sanksiya ro‘yxatlariga (jumladan BMT/YI ro‘yxatlari, OFAC SDN/Non-SDN, UK Sanctions List (asset freeze) va boshqa tegishli ro‘yxatlar) kiritilmaganligini hamda ushbu Shartnoma bo‘yicha operatsiyalar sanksiya cheklovlarini chetlab o‘tish (bypass) maqsadida amalga oshirilmasligini kafolatlaydi.

9.3. Qarz oluvchi o‘zining sanksiyaviy maqomiga oid har qanday o‘zgarish yoki Shartnoma ijrosiga ta’sir qiluvchi holatlar yuzaga kelganda Bankni darhol xabardor qiladi. Xabarnoma belgilagan masofaviy aloqa vositalari orqali yuborilishi (berilishi) mumkin.

9.4. Bank sanksiya va komplayens tekshiruvlarini, shu jumladan avtomatlashtirilgan screening (tekshiruv)ni o‘tkazishga hamda Qarz oluvchidan qo‘shimcha ma’lumot va hujjatlarni so‘rashga haqli. Qarz oluvchi so‘ralgan ma’lumotlarni belgilangan muddatda taqdim etmasa yoki noto‘g‘ri/yetarli bo‘lmagan ma’lumot taqdim etsa, yoxud sanksiyaviy xavf aniqlansa, Bank kredit ajratishni rad etishga, operatsiyalarni (jumladan mablag‘larni o‘tkazish/berishni) cheklashga yoki to‘xtatishga haqli.

9.5. Sanksiya cheklovlari va komplayens talablari bilan bog‘liq sabablar tufayli operatsiyalar cheklanishi/to‘xtatilishi oqibatida Qarz oluvchining ko‘rgan zarar(lar)i uchun Bank javobgar bo‘lmaydi (qonunchilikda boshqacha nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

9.6. Bank sanksiyaviy xavf aniqlanganda ushbu Shartnomani qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilishga haqli. Qonunchilikka muvofiq bekor qilish uchun vakolatli davlat organi qarori (ko‘rsatmasi) talab etiladigan hollarda, Bank zarur hujjat va materiallarni vakolatli organlarga belgilangan tartibda taqdim etadi hamda Shartnoma tegishli qaror (ko‘rsatma) asosida bekor qilinadi.

X.TOMONLAR JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

10.1. Taraflarning javobgarligi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi hamda amaldagi qonunchilikka asosan belgilanadi.

10.2. Qarz oluvchining topshirig‘iga asosan kredit summasi o‘z muddatida o‘tkazib berilmaganda, “Bank” “Qarz oluvchi”ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,2 foizi miqdorida penya to‘laydi. Biroq, bunda penyaning umumiy summasi o‘tkazib berilmagan summaning 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

10.3. Qarz oluvchi asosiy qarz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda, kechiktirilgan har bir kun uchun ikki baravar oshirilgan stavkada hisoblangan foizlarni, shuningdek muddati o‘tgan foiz qarzdorliklarining kechiktirilgan har bir kuni uchun 0,2 foizi miqdorida, ammo muddati o‘tgan qarzdorlikning 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to‘laydi.

10.4. Shartnoma bo‘yicha yuzaga keladigan barcha nizolar milliy valyutada bank karta hisob raqamini ochilgan bank filiali joylashgan hududdagi sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.

10.5. Mazkur Shartnoma ommaviy oferta shaklida e’lon qilingan bo‘lib, Qarz oluvchi tomonidan mobil ilovada ushbu Shartnoma shartlari bilan tanishib, “Qabul qilaman (Tasdiqlayman)” tugmasini bosish hamda Face ID (biometrik identifikatsiya) va push-bildirishnoma orqali yuborilgan bir martalik tasdiqlash kodi (OTP) bilan tasdiqlash orqali O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq aksept qilingan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Mazkur tarzda aksept qilingan Shartnoma Tomonlar uchun majburiy bo‘lib, qog‘oz shaklda o‘z qo‘li bilan imzolangan shartnoma bilan teng yuridik kuchga ega hisoblanadi.

XI.BANK YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI

BANK
“Agrobank” ATB

Yuridik manzili:
O‘zbekiston Respublikasi,
Toshkent sh. Shayxontohur tumani
Botir Zokirov ko‘chasi, 2 a-uy.

Indeks 100011
E-mail: headoffice@agrobank.uz
Web: www.agrobank.uz